







Nogironligi bor insonlar mashinalarini avtoturargohlarga joylashtirish bo‘yicha imtiyozlar

Illyustratsiya	Oson matn
	Bu maqolada sen mashinangni avtoturargohga joylashtirishdagi imtiyozlaring haqida bilib olasan.
	“Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida”gi Qonunining 9-moddasida sen: ● **binolar** ● **inshootlar** ● **transportlar** ● va boshqa **xizmatlardan** foydalanishing uchun sharoit yaratish kerakligi belgilangan.
	Sen uchun qulay sharoit yaratish maqsadida: ● Toshkentdagi **metrolarda** eshiklar **ochilib-yopilishi** ● **bekatlar** haqida **ovozli aytib turilishi** ● **ekranlarda** bekatlar **ko‘rsatilishi** kabi sharoitlar yaratilgan.
	**Poyezd** vagonlarining **bosh qismida** sen uchun **maxsus o‘rindiqlar bor.**

	Vazirlar mahkamasining qaroriga ko‘ra: • mashina qo‘yish joylarining kirish va chiqish qismida sen mashinangni qo‘yishing uchun kamida 2 ta joy ajratilishi kerak.
	Masalan, **mashinalar qo‘yish joyi**ning kattaligi 100 sotix bo‘lsa, sen mashinangni qo‘yishing uchun **5 sotix** joy ajratilishi kerak.
	Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 24-dekabrdagi **370-sonli** qaroriga ko‘ra sen mashinangni qo‘yishing mumkin bo‘lgan joylarga: • “5.15. To‘xtab turish joyi” • “7.17. Nogironlar” yo‘l belgilari qo‘yilishi kerak.
	• ”5.15. To‘xtab turish joyi” • “7.17. Nogironlar” **yo‘l belgilarining chiziqlari** boshqa haydovchilarga **yaxshi ko‘rinadigan** bo‘lishi kerak.
	Vazirlar mahkamasi qaroriga ko‘ra sen: • mashinangni to‘xtab turish joyiga qo‘yganing uchun pul to‘lamaysan.

	Sen mashinalar qo‘yish joyidan bepul foydalanishing uchun: ● Mashinangga **“Nogironligi bor haydovchi avtomobili”** belgisini o‘rnatishing kerak ● Birinchi va ikkinchi guruh nogironi ekanligingni tasdiqlovchi hujjatni ko‘rsatishing kerak.
	16 yoshgacha bo‘lgan **nogironligi bor bolasi** bor **ota-onalar** (yoki uning o‘rnini bosuvchi insonlar) **bolasining nogironlik hujjatini** ko‘rsatib mashinalar qo‘yish joyidan **bepul** foydalanishi mumkin.
	Sen yashaydigan joydagi mashinalar qo‘yish joyida nogironligi bor insonning **mashinasi uchun joy ajratilmagan** bo‘lsa **hokimiyatga** murojaat qilishing mumkin.
	Ma’muriy javobgarlik kodeksining **1-modda**siga ko‘ra: ● mashinalar qo‘yish joyi **rahbari** nogironligi bor insonlar **mashinasini qo‘yishi** uchun **sharoit yaratmasa,** BHMning 10 baravaridan 15 baravarigacha jarima to‘laydi.
	**Ma’muriy javobgarlik** – bu qonunda yozilgan tartib qoidalarni buzganlik uchun beriladigan yengil jazo.

	BHM – bu Bazaviy hisoblash miqdori. Hozirda 1 BHM– 340 000 (uch yuz qirq ming) so‘m.
	Jarima – bu qoidani buzganlik uchun to‘lanadigan pul.
	Jarima to‘laganidan keyin ham rahbar mashinalar qo‘yish joyida sen mashinangni qo‘yishing uchun joy ajratmasa boshqa jazo turlari ham qo‘llaniladi.
	Sen uchun ajratilgan mashinalar to‘xtash joylaridan sog‘lom insonlar ham foydalanganligi sababli, nogironligi bor insonlarda qiyinchilik paydo bo‘lmoqda.
	Ma’muriy javobgarlik kodeksining 128-moddasiga ko‘ra: ● haydovchilar piyodalar yo‘lidan yurganda ● yo‘l belgilariga rioya qilmaganda ● yo‘l harakati qoidalariga rioya qilmagandabazaviy hisoblashning ikkidan bir qismi miqdorida jarima to‘laydi.